

**BOSHLANG'ICH SINFDADA O'QISHNING O'ZIGA XOSLIGI
VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI**

Meretgeldieva Aygul Bekmiratovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI

Boshlang'ich ta'lim fakulteti

3-bosqich talabasi

Annotasiya. Bu maqolada boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarning o'qish malakalarining rivojlantirish usullari, o'qish darsining tarkibiy qismlari, bu qismlarning o'zaro bog'liqligi haqida fikr yuritiladi. Ifodali o'qishda olib boriladigan ishlarning mazmun va mohiyati izohlanadi.

Kalit so'zlar: o'qish, boshlang'ich sinf, ongli o'qish, to'g'ri o'qish, o'qish tezligi, ifodali o'qish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining asosiy maqsadi - o'quvchilarning bilimli, va fikrlash doirasi keng bo'lishini ta'minlash. Ularning mahoratini tahlil qilib, keng miqyosda foydalanilishiga erishish.

Boshlang'ich sinfdagi o'qish malakalarini rivojlantirish boshlang'ich sinf o'qituvchisidan katta mehnat talab etiladi. O'qituvchining zamonaviy usullari va mohirona harakatlari bilan o'quvchilarni o'ziga qaratib bilishi darkor. Aks holda bolaning qiziqishlari ham shakllanmay qoladi. O'qituvchi o'ziga qaratish usuli bilan bolaning yanada o'qishga havasini orttiradi va bilim doirasini ham kengaytirib boradi. Shu asnodagi har bir o'quvchining o'qib borishi avvalo uning o'ziga oxshagisi keladigan ustozining bolishi olqishga sazovordir. Bolaning ongi va tafakkuri endi shakllanib kelayotgan boshlang'ich sinflarda o'qituvchining mahorati, uning zamonaviy texnologiyalarni ta'lim jarayoniga mohirona tadbiriq etilishi, ilg'or pedagogik tajribalardan mohirona foydalana olishi, ta'lim berishning yangi yangi usullarni ishlashi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim - tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi o'qish darslarida amalga oshiriladi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarining, ayniqsa birinchi sinfdagi o'qish darslarining maqsadi o'quvchilarda ongli, to'g'ri, ravon, tez va ifodali o'qish malakasini hosil qilishdir. Asosiy o'qish darsliklari matematika, atrofimizdagi olam, odobnoma va boshqa fanlarga doir mavzularda beriladigan bilimlarni, mustahkam o'qib olishlarida juda katta rol o'ynaydi, chunki bola to'g'ri, ongli ravon o'qisagina matn mazmunini yaxshi anglab oladi. O'qish darsining o'zaro mahkam bog'langan to'rt asosiy tarkibiy qismi bor. Ular quyidagilardan iborat: ongli o'qish, ifodali o'qish, to'g'ri o'qish va tez o'qish. Bu qismlar orasida ongli o'qish yetakchi o'rinda turadi.

Ongli o'qish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga erisha olishlari kerak : o'qigan so'zlarining asl va ko'chma ma'nolarini , har bir gapning ma'nosini aytib bera olishlari, bo'limning mazmunini qisqacha bayon qilib bera olishlari , matnning to'liq mazmunini bayon qilib bera olishlari , o'qiganlariga nisbatan o'z munosabatlarini bildirishlari lozim. O'quvchida ifodali o'qish malakasini tarbiyalash uchun esa , uni o'qiganlarining ma'nosini to'xtamlarga rioya qilgan holda , so'z urg'ulariga ahamiyat berib , o'rtacha ovozda ta'sirli o'qishga o'rgatish va hokazolar talab qilinadi .

Ifodali o'qish ongli o'qishning ko'rsatkichidir, chunki matnning ma'nosini anglab o'qiy olgan o'quvchi, albatta, ifodali o'qish malakalarini ham egallagan bo'ladi. Ongli o'qish ifodali o'qish malakalarini o'stirish va mustahkamlashga yordam beradi.

To'g'ri o'qish malakasini o'stirish uchun shoshmasdan, harflarning o'rnini almashtirmasdan so'z qo'shimchalarni to'liq holda orfoepiya qoidalariga rioya qilib o'qilishi lozim . O'qish jarayonida bolalarni doimo o'z-o'zini kuzatib borishga o'rgatish, hatosiz, tez va to'g'ri o'qishga intilish hislarini paydo qilish, ayniqsa birinchi sinfdagi o'qish darslarida alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qish tezligi ongli, ravon o'qishga bog'liqdir. O'qish tezligini oshirishga ko'p bo'g'inli va imlosi qiyin so'zlarni matndan tashqarida bo'g'inga bo'lib o'qish yordamida erishiladi. O'qish tezligini oshirish bosma va yozma harflar bilan yozilgan so'z va gaplarni ovoz chiqarib o'qishni, xor bo'lib o'qishni, ichda o'qishni, matnlarni rollarga bo'lib o'qishni ko'proq mashq qildirish yo'li bilan ta'minlanadi. Bola qancha ko'p o'qisa, o'qish tezligi shuncha ortib boradi .

Ongli, to'g'ri va ravon o'qish malakasi hosil qilingan sari, ta'sirli o'qish malakasi ham o'sib boradi. Ta'sirli o'qish o'quvchida his - tuyg'u uyg'otishga, voqea hodisalarni tasavvur etishga, estetik zavq bag'ishlashga xizmat qiladi. Shu jumladan o'quvchilarning o'qish mahoratini rivojlantirish va takomillashtirish uchun juda muhim ahamiyat hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak o'qish turini qancha rivojlantirsak, uning mohiyati shuncha ochilib boradi. O'quvchi qancha tez va samarali o'qishni o'rgansa, bu o'qituvchining katta yutug'i hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhabbat Umarova "Uchinchi sinf o'qish darslari" Toshkent 2004. "Ijod dunyosi"
2. Berdiyeva Ma'rifat " O'qish malakalarini rivojlantirish"
3. Ziyonet.uz kutubxona